



UDK: 94(575.13)

Abdurashid NISHONOV,
Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Ruhshona KIMSANOVA,
Farg'ona davlat universiteti talabasi
E-mail: RushanaXayrullayevna@gmail.com

PhD, dotsent A.Musayev taqrizi ostida

FARG'ONA VODIYSI TARIXINING RUS TARIXSHUNOSLIGIDA YORITILISHI

Аннотация

Ushbu maqolada XVI–XVII asrlarda Farg'ona vodiysida kechgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar rus tarixshunosligi materiallari asosida tahlil qilinadi. Manbalararo solishtirma usul qo'llanib, mintaqaning boshqaruv tizimi, ijtimoiy tuzilmasi hamda tarixiy rivojlanish dinamikasi kompleks ilmiy yondashuvda ochib beriladi. Shuningdek, mintaqaning siyosiy barqarorligi, ichki munosabatlari va tashqi omillar ta'siri ilmiy asosda baholanadi ham tarixiy jarayonlar doirasida atroflicha yoritiladi.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, rus hsrqshunosligi, siyosiy tarix, sulolaviy nizolar, manbashunoslik, tarixshunoslik, metodologiya, arab – fors , mintaq, arxiv.

THE REPRESENTATION OF THE HISTORY OF THE FERGANA VALLEY IN RUSSIAN HISTORIOGRAPHY

Annotation

This article analyzes the political, social, and economic processes that took place in the Fergana Valley during the 16th–17th centuries based on materials from Russian historiography. Through the application of a comparative source analysis method, the study examines the region's system of governance, social structure, and the dynamics of its historical development within a comprehensive academic framework. In addition, the political stability of the region, its internal relations, and the influence of external factors are evaluated on a scientific basis and thoroughly interpreted within the broader context of historical processes.

Key words: Fergana Valley, Russian historiography, political history, dynastic conflicts, source studies, historiography, methodology, Arab-Persian sources, region, archive.

ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ В РУССКОЙ ИСТОРИОГРАФИИ

Аннотация

В данной статье анализируются политические, социальные и экономические процессы, происходившие в Ферганской долине в XVI–XVII веках, на основе материалов русской историографии. С применением сравнительного анализа источников раскрываются система управления региона, его социальная структура и динамика исторического развития в рамках комплексного научного подхода. Кроме того, даётся научная оценка политической стабильности региона, его внутренних взаимоотношений и влияния внешних факторов, что позволяет всесторонне осветить исторические процессы.

Ключевые слова: Ферганская долина, русская историография, политическая история, династические конфликты, источниковедение, историография, методология, арабо-персидские источники, регион, архив

Kirish. XVI–XVII asrlarda Farg'ona vodiysida kechgan siyosiy jarayonlar, sulolaviy kurashlar hamda mahalliy hokimliklarning shakllanishi Rossiya va keyinchalik sovet davri sharqshunosligi doirasida tizimli va ilmiy asosda o'rganila boshladi. Ushbu tadqiqotlar mintaqaning siyosiy tarixini faqat voqealar ketma-ketligi sifatida emas, balki ichki siyosiy raqobat, hokimiyat legitimatsiyasi va markaziy hamda mahalliy boshqaruv munosabatlari kontekstida tahlil qilishga yo'naltirildi. Ayniqsa, sulolaviy nizolar va ularning hududiy boshqaruv shakllariga ta'siri tarixiy jarayonlarning asosiy harakatlantiruvchi omili sifatida talqin etildi.

Rus va sovet sharqshunoslari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar arab-fors tarixiy manbalari, qo'lyozma asarlar, rasmiy arxiv hujjatlari hamda ilmiy ekspeditsiyalar davomida to'plangan empirik materiallarga tayanib olib borildi. Bu yondashuv Farg'ona vodiysining siyosiy tuzilmasi bilan bir qatorda, iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlar, yer egaligi munosabatlari, savdo yo'llari va ishlab chiqarish tizimining tarixiy dinamikasini aniqlash imkonini berdi. Natijada mintaq tarixi bo'yicha faktlarga asoslangan, manbashunoslik va etnografik-tarixiy yondashuvlarni uyg'unlashtirgan konseptual ilmiy poydevor shakllantirildi.

Mazkur ilmiy meros keyingi davr tadqiqotchilari uchun muhim nazariy va metodologik poydevor vazifasini bajardi. Ushbu yondashuvlar asosida Farg'ona vodiysi tarixi alohida hududiy hodisa sifatida emas, balki kengroq Markaziy Osiyo tarixiy jarayonlarining ajralmas qismi sifatida talqin etila boshlandi. Natijada, mintaq tarixini o'rganishda kompleks va tizimli qarash shakllandi, ya'ni siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy omillar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Bu esa Farg'ona vodiysining tarixiy rivojlanishini faqat lokal doirada emas, balki umumiy sivilizatsion kontekstda anglash imkonini berdi.

Shuningdek, ushbu ilmiy an'analar keyingi izlanishlarda manbashunoslik, qiyosiy tahlil va tarixiy rekonstruksiya usullarining keng qo'llanilishiga turtki berdi. Tadqiqotchilar endilikda Farg'ona vodiysidagi jarayonlarni boshqa hududlar bilan qiyoslash orqali uning o'ziga xos jihatlari aniqlashga harakat qildilar. Shu tariqa, tarixiy hodisalarning ichki qonuniyatlarini chuqurroq anglash imkoniyati yuzaga keldi. Umuman olganda, mazkur ilmiy meros Farg'ona vodiysi tarixini yanada mukammal va ko'p qirrali yoritish uchun zarur bo'lgan ilmiy asosni shakllantirib, zamonaviy tadqiqotlar rivojiga sezilarli hissa qo'shdi.

Tadqiqotning asosiy natijalari. V.V.Bartold [1](1869–1930) – tarixiy-filologik yondashuv asoschisi Bartold Farg'ona vodiysi tarixini o'rganishda arab-fors manbalarini tanqidiy tahlil qilish metodini tatbiq etib, XVI asr oxiri – XVII asr siyosiy jarayonlarini keng mintaqaviy kontekstga joylashtirdi. U tadqiqoti davomida Movarounnahrning siyosiy-geografik tarixini qayta tiklab, Farg'ona vodiysi ahamiyatini yuqori baholagan. Bartold muhim manbalarni solishtirma tahlil qilgan. Bartoldning metodologiyasi keyingi barcha tadqiqotlarning asosini tashkil etdi.

Bartoldning ishlari baholashda ko'pincha u Rus imperiyasining Sharqni "ilmiy tadqiqot" nomi ostida boyitish maqsadlari bilan faoliyat yuritganini inobatga olgan holda qaraladi. Uning yondashuvi – mustaqil tarixiy tahlil ekaniga qaramasdan, imperial ilmiy-siyosiy kontekstdan to'liq ajratilgan emas. Imperiya maqsadlari va ilmiy intilishlar aralashuvi Bartold tadqiqotlarini ham kritik yondashuv bilan qayta o'rganishni talab qiladi.

F.Oldenburger (1863–1934) – ilmiy ekspeditsiyalar va empirik manba to'plovchi.Oldenburger rahbarligidagi 1909–1910 yilgi Turkiston ekspeditsiyalari davomida Farg'ona vodiysidan ko'plab arxeologik topilmalar, qo'lyozmalar, mahalliy tarixchilar yozuvlari, iqtisodiy hujjatlar va etnografik kuzatuvlar to'plandi. Bu materiallar sovet tarixshunosligining empirik bazasini yaratdi. Ilmiy ahamiyati: Farg'ona vodiysining moddiy madaniyati va manbashunoslik fondini yaratishda hal qiluvchi rol.

Oldenburger markaziy obyekti ko'proq "Topografik va arxeologik topilmalar" bo'lgan bo'lsa-da, uning asarlarida Farg'ona vodiysi to'g'risidagi tarixiy yozma manbalar yetarlicha tahlil qilinmagan yoki faqat arxeologik kontekstdan ko'rilgan. Bu esa XVI–XVII asr siyosiy jarayonlarni chuqur tarixiy tahlil nuqtai nazaridan qisman yetishmaydi deb baholanishi mumkin. Shuningdek, uning ko'plab ekspeditsiya materiallari nashr etilmay qolgan, bu esa olimning yuqori ilmiy merosining ilmiy muomalaga to'liq kiritilishini cheklaydi.

A. A. Semyonov[9] – arxivshunoslik va mahalliy tarixni tiklash. A.Semyonov ilmiy hayot va ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmani o'rganuvchi sovet olimi bo'lib, u Farg'ona vodiysi tarixi bilan bevosita bog'liq bo'lgan qo'lyozmalar, hujjatlar, soliq tizimi va yer-mulk masalalarini arxivlardan topib ilmiy muomalaga kiritdi. Muallif bergan ma'lumotlarga tayanib, Farg'ona vodiysining tabiiy sharoiti, o'simlik va hayvonot dunyosi borasida qimmatli ma'lumotlarni olish mumkin.

Semyonovning asarlarida siyosiy jarayonlar ko'pincha ijtimoiy-iqtisodiy struktura sohasida qoladi. Biroq manbashunoslik jihatidan u juda ishonchli.

A.Aristov (1847–1910) – etnografik-tarixiy yondashuv. Aristov Markaziy Osiyo xalqlarining qabilaviy tarkibi, Farg'ona vodiysidagi etnik guruhlarining kelib chiqishi va siyosiy ta'sirini o'rgandi. U turkiy urug'larning shakllanishi va hududiy joylashuvining tarixiy ildizlarini izohlab berdi. Mazkur manba XVI–XVII asr siyosiy jarayonlarini etnik tarkib bilan bog'lash imkonini yaratib berdi[3].

Aristovning asarlari ko'pincha turli xalqlarni ta'riflash bilan cheklanadi va siyosiy tizimlarning ichki dinamikasini o'rganishda yetarlicha analitik chuqurlik bermaydi; shuning uchun u asosan etnografik manba sifatida qaraladi, siyosiy tarix sifatida emas.

N.V.Veselovskiy – arxeologik tadqiqotlar asoschisi. Veselovskiy Turkistonning qadimiy hududlarida olib borgan arxeologik izlanishlari orqali Farg'ona vodiysining siyosiy markaz sifatidagi tarixini moddiy madaniyat asosida tasdiqladi. Uning izlanishlari sovet arxeologiyasi uchun metodik dastur bo'ldi.

Biroq, uning yondashuvi ko'proq arxeologik-dalil bo'lib, XVI–XVII asr yozma siyosiy manbalari bilan

uyg'unlashtirilmagan. Shu sababli u siyosiy tarixdan ko'ra, hududiy taraqqiyot kontekstida muhim sanaladi.

V.A. Nalivkin va M. Nalivkina[8:320] – Farg'ona vodiysi ijtimoiy tuzilmasi bo'yicha klassik tadqiqotchilar.Nalivkinlar Farg'ona vodiysida uzoq yillar yashab, mahalliy jamiyat, boshqaruv tizimi, qishloq xo'jaligi va hokimlar o'rtasidagi munosabatlar haqida batafsil ma'lumotlar to'plagan. Ularning "Ferganskaya dolina" nomli ishlari hanuzgacha eng ishonchli etnografik manbalardan biri.

Nalivkinlar tadqiqoti mustaqil ilmiy izlanish sifatida qadrlansa-da, ularning ishlari rus kolonial siyosati kontekstidan ajralmaydi. Ular hududda Rossiya imperiyasining ma'muriy va madaniy mehnatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu holat ularning tadqiqot metodologiyasini ba'zan lokal kontekstni chetga surib, rasmiy imperiya maqsadlariga yo'naltirgan deya tanqid qilinadi.

P. P. Ivanov [4] (1893–1938) – qo'lyozmalar orqali siyosiy tarixchi. Ivanov Boburiylar, Shayboniylar, Ashtarxoniyalar va Mahalliy hokimliklar tarixiga oid qo'lyozmalarni o'qib, XVI–XVII asr Farg'ona siyosiy voqealarini xronologik tartibga soldi. Uning sharhlovchi maqolalari Farg'ona tarixshunosligining asosiy manbasi bo'lib qolgan.

Ivanov ba'zan manbalarga haddan tashqari ishonib, ularning ichki ideologik tarafdashligini yetarli ochmagan, biroq faktografik aniqligi yuqori.

I.F.Popova – rus ekspeditsiyalari merosini zamonaviy qayta talqinda tiklovchi olim. Popova XX–XXI asrlar chegarasida rus ekspeditsiyalarining arxiv materiallarini qayta nashr qilib, Farg'ona vodiysiga oid tarixiy hujjatlarni ilmiy jamiyatga taqdim etdi.

E. E. Bertels (1890–1957) – adabiy manbalar orqali tarixiy tahlil. Bertels fors va turkiy adabiyot qo'lyozmalarini filologik tahlil qilib, ularning ichida XVI–XVII asr siyosiy voqealari, sulolalar o'rtasidagi kurashlar, iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni aniqlab berdi. Uning ishlarida Xondamir, Mirxond, Zayniddin Vosifiy kabi mualliflarning asarlari chuqur sharhlangan. Farg'ona tarixini adabiy-tarixiy matnlar orqali qayta o'qish imkonini yaratdi.

Sergey Leonidovich Volin (1896–1962). Volin O'rta Osiyoda feodal tuzum, yer egaligi va siyosiy institutlarni o'rganib, Farg'ona vodiysini hududiy-feodal tizim doirasida tahlil qilgan.

Uning ishlari marksistik tarixshunoslik ta'sirida yozilgan bo'lib, siyosiy jarayonlar sinflar kurashi modeli orqali soddalashtirilgan.

Aleksandr Yurevich Yakubovskiy (1886–1953) Markaziy Osiyo tarixshunosligida muhim o'rin tutgan olimlardan biri bo'lib, u Movarounnahr va Turkistonning tarixiy taraqqiyotini umumlashtiruvchi yirik tadqiqotlar muallifi sifatida tanilgan. Uning ilmiy yondashuvi keng qamrovli bo'lib, XVI–XVII asrlarda Farg'ona vodiysini alohida hudud sifatida emas, balki umumiy mintaqaviy siyosiy tizimning tarkibiy qismi sifatida talqin qiladi. Shu bois, Yakubovskiy asarlarida Farg'ona vodiysi ko'pincha umumiy tarixiy jarayonlar fonida yoritilib, ayrim aniq mahalliy jihatlar yetarli darajada chuqurlashtirilmagan. Bu esa uning tadqiqotlariga umumlashtiruvchi xarakter baxsh etgan.

Boris Dmitrievich Grekov (1882–1953) esa bevosita Farg'ona vodiysi tarixini o'rganmagan bo'lsa-da, uning feodal jamiyat nazariyasiga asoslangan konseptual qarashlari Markaziy Osiyo tarixini tahlil qilishda muhim metodologik asos vazifasini bajargan. Grekov tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-iqtisodiy model mintaqaning siyosiy tuzilishini tushinishda qo'llanilgan, jumladan Farg'ona tarixini talqin qilishga ham bilvosita ta'sir ko'rsatgan. Biroq, ushbu yondashuvda hududiy o'ziga xosliklar va lokal omillar yetarli

darajada hisobga olinmagani sababli, Farg'ona vodiysining murakkab va rang-barang tarixiy jarayonlari to'liq aks etmagan.

Xulosa. XVI–XVII asr Farg'ona vodiysi tarixi rus sharqshunoslari tomonidan filologik, arxeologik, arxivshunoslik, etnografik va ekspeditsion metodlar orqali o'rganilgan. Bartoldning manbashunoslikka asoslangan ilmiy yondashuvi, Oldenburg va Veselovskiyning empirik topilmalari, Bertels va Ivanovning qo'lyozmaviy tahlillari, Aristov va Nalivkinlarning etnografik kuzatuvlari mintqa tarixini har tomonlama tiklashga imkon berdi. Ularning ishlari sababli Farg'ona vodiysining XVI–XVII asrdagi siyosiy jarayonlari – hokimlar o'rtasidagi kurashlar, sulolaviy ziddiyatlar, iqtisodiy hayot, mahalliy boshqaruv organlari va aholi tarkibi – puxta ilmiy asosda yoritildi. Rus sharqshunoslarining Farg'ona vodiysi tarixini o'rganishga qo'shgan hissasi katta bo'lishiga qaramay, ularning

metodologiyasi va kontekstlari muhokama qilinishi lozim. Bartold filologik va umumiy tarixiy konseptni ilgari surdi, ammo uning ishlari ko'pincha imperial ilmiy siyosat bilan bog'liq edi. Oldenburgning arxeologik ekspeditsiyalari naqadar chuqur bo'lgan bo'lsa ham, siyosiy tarixga oid yozma manbalarni kamroq tadqiq qildi. Nalivkinlar esa etnografik boy materiallar jamg'ardilar, lekin kolonial kontekst ularning yondashuvini murakkablashtiradi. Aristov etnografik tarixni boyitdi, ammo siyosiy jarayonlarni hammasiga yetarlicha tahliliy yondoshmadi.

Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlarda bu klassik sharqshunoslarning merosi tanqidiy qayta ko'rib chiqilmoqda: ularning metodologik chegaralari, imperiya kontekstining ilmiy tahlilga ta'siri, hamda yozma manbalarni to'g'ri talqin qilishning murakkablik va kamchiliklari inobatga olinadi.

ADABIYOTLAR

1. Ahmedov B. O'rta Osiyo xonliklari tarixi bo'yicha tadqiqotlar. – Toshkent: Fan, 1992. – 342 bet.
2. Aristov N. A. Turkiy xalqlarning etnik tarkibi va qozoq-qaysaq qabilalarining hayot tarzi haqida ma'lumotlar. – Sankt-Peterburg: M. M. Stasyulevich nashriyoti, 1897. – 520 bet.
3. Bartold V. V. O'rta Osiyo tarixi bo'yicha asarlar. II tom. – Moskva: Nauka, 1963. – 784 bet.
4. Ivanov P. P. O'rta Osiyo tarixiga doir ocherklar. – Moskva–Leningrad: SSSR FA nashriyoti, 1958. – 412 bet.
5. Ismoilov R. Farg'ona vodiysi tarixiy manbalari va ularning metodologik tahlili // Sharq yulduzi. – 2017. – №6. – 28–36-betlar.
6. Karimov B. Farg'ona vodiysi tarixi: manbalar va tadqiqotlar. – Toshkent: Fan, 2003. – 295 bet.
7. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi: manbashunoslik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 280 bet.
8. Nalivkin V. A., Nalivkina M. O'tmish Turkiston hayoti va urf-odatlar. – Toshkent: Fan, 1969. – 320 b.
9. Semyonov A. A. O'rta Osiyo tarixiga doir tadqiqotlar. – Toshkent: Fan, 1965. – 287 b.
10. Saidov U. XVI–XVII asrlarda Farg'ona vodiysi haqida rus olimlari qarashlari // O'zbekiston tarixi jurnali. – 2019. – №4. – 40–51-betlar.
11. Tolstov S. P. Qadimgi Xorazm va O'rta Osiyo xalqlari. – Moskva: Sharq adabiyoti nashriyoti, 1948. – 366 bet.
12. Xaruzin A. N. Farg'ona vodiysi bo'yicha etnografik materiallar. – Sankt-Peterburg: Imperator Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1902. – 249 bet.
13. Yakubovskiy A. Y. Markaziy Osiyo tarixi. – Moskva: Nauka, 1976. – 340 bet.